

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI<sup>170</sup>

30-OKTABR

ANDIJON,2024

## 6-7 YOSHLI BOLALARNI O'QITISHDA INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK YONDASHUV

Bolibekova Maftuna Shermuxammedovna

Sirdaryo Pedagogika kolleji maxsus fan o'qtuvchisi

(Sirdaryo,O'zbekiston)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola 6-7 yoshli bolalarni o'qitishda individual-psixologik yondashuv haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** O'qitish, bola, texnologiya, metod, ta'lif, tarbiya, tajriba.

O'zbekiston Respublikasida ilk va mакtabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qо'yildigan Davlat talablari, "Ilk Qadam" Davlat o'quv dasturi, O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limi rivojlantirish Konsepsiyasining joriy qilinishi, boshlang'ich mакtab ta'limi Davlat ta'lim standartlarining qabul qilinishi o'z ortidan nafaqat ancha vaqtlardan beri mavjud bo'lib kelayotgan maktabgacha va boshlang'ich ta'lim orasidagi izchillikni ta'minlash bo'yicha ishlar tizimining qayta ko'rib chiqilishini keltirib chiqardi, balki pedagoglarga maktabgacha va mакtab ta'lim tizimini yangichasiga qayta tuzib chiqi Pedagog tomonidan tanlab olingen o'qitish shakllari intellektual jarayonlarning shakllanishiga yordam berishi, masalalarni ijodiy hal qilishuchun shart-sharoitlarni yaratishi, mustaqillikni va ma'suliyatni o'rgatishi, bolalarni o'z xulq-atvorini boshqarishni mashq qildirishi lozimdir. Maktabgacha ta'lim uzlusiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini bo'lib sanaladi. U sog'lom va rivojlangan bola shaxsining shakllanishini ta'minlashi, tizimli o'qitishga tayyorlash bilan unda o'qish-o'rganishga intilishni uyg'otishi zarur.

**Bola shaxsiga yo'naltirilgan yondashuvning maqsadi** – bu uning berilgan standart ostiga "qayta yasalishi" va bo'ysundirilishi emas, balki shaxsning rivojlanishi, "uning qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilinishi"dir. Bola shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv ta'lim jarayoni sub'ektlarining shaxsiy majburiyatlari (funksiyalari) rivojlanishining to'laqonli namoyon bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratilishini ko'zda tutadi.

Shaxsiy funksiyalar – bu shaxs tomonidan "uyg'un rivojlangan shaxs bo'lish"dek ijtimoiy buyurtmani amalga oshiruvchi ma'lum bir sifatlarning namoyon qilinishidir.

Ta'lim jarayonini tashkil etish asosi sifatida shaxsiy yondashuv bola shaxsining jamoa oldida tan olinishini, unda gumanistik o'zaro munosabatlarning hosil qilinishini asosiy deb biladi. Mana shu munosabatlarga bog'liq holda bola o'zini shaxs sifatida anglaydi va boshqa kishilarda (tengdoshlari va kattalarda) ham shaxs sifatida ko'rishni o'rganadi. Har bir bolaning shaxsiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish yo'llari pedagogning qadriyatli yo'nalishlariga, ya'ni, uning xulq-atvorida ifodalanadigan moddiy va ma'naviy qadriyatlariga, yo'l-yo'riqlar, ishonch-e'tiqod, moyilliklarga nisbatan tanlama munosabatlariga bog'liq bo'ladi.

Pedagogning mahorati uning kasbiy faoliyatini yo'nalishini belgilab beradi. Pedagogning shaxsiy yondashuvi bolaga o'zini shaxs sifatida anglashda hamda imkoniyatlarini aniqlashgayordam ko'rsatishini ko'zda tutadi.

Bola shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv - bu shunday o'qitishki, u bolaning yosh xususiyatlarini, uning qobiliyatları, qiziqishlari, ehtiyojlari, tajribasi, maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelgunigacha oiladagi madaniyatni hisobga oladi, bu bolani o'qitishdagi maqsadlarga erishishida yordam beradi.

1. O'qitish – bolalar eng optimal ravishda qanday rivojlanayotganliklari va o'qiyotganliklarini bilishga asoslanishi kerak;

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI<sup>171</sup>

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

2. O'qtishdagi muvaffaqiyat pedagogning bolalarni qanday qilib o'qitish va rivojlantirish metodlari hamda usullarini bilishiga bog'liq bo'ladi;
3. Pedagogning asosiy vazifasi bu bolaning potensialni aniqlashi va uning rivojlantirilishiga yordam ko'rsatish;
4. Maktabgacha ta'limning o'ziga xosligi bolalikning qadr-qimmatini tushunish va uni muddatidan oldin katta bo'lib qolishga turki bermaslik.

Tarbiyachi bolalarga o'qitish maqsadlariga erishishda **yordam ko'rsatishi** lozim.

1. Bolalar odatda yangi ko'nikmalarni o'z tashabbuslari bilan, masalan, zinapoyadagi pog'onalarni sanash kabi, amalda qo'llaydilar.

2. Yangi ko'nikma o'z takomiliga yetkazilishi bilan bolalarga o'rghanishni davom ettirish uchun yangi vazifalar kerak bo'ladi. Lekin bu vazifalar ham realistik bo'lishi zarur.

Bola shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv tarbiyachidan quyidagilarni **talab etadi**.

1. Pedagoglar joriy davrdagi olg'a siljish darajasini belgilayotganlarida va keyingi qadamlarni rejalashtirayotganlarida dastur maqsadlarini xotirada tutadilar.

2. Maqsadlar qanchalik realistik ekanligi darajasi individual bolaning rivojlanish darajasiga, oldingi tajribalarga, bilim va ko'nikmalarga, shu jumladan, o'qitish ro'y berayotgan kontekstga bog'liq bo'ladi.

Rivojlaniruvchi yondashuv – bolaning tabiiy ravishda ulg'ayishining muhimligini baholash va tahlil etish imkoniyatini yaratadigan rivojlanirishga yo'naltirilgan yondashuv.

Bu yondashuvga muvofiq bolalar:

- o'yin jarayonida atrof muhit haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtirib, faol ta'lim oladi;
- rivojlanishning qonuniy bosqichlarini bosib o'tadi;
- hissiy va kognitiv(aqliy) rivojlanishi uchun ijtimoiy o'zaro munosabatlarga ehtiyoj sezadi.

Har bir bola o'ziga xos sur'atda, betakror shaxs sifatida rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda bola shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv – bu bolaning yosh xususiyatlari, uning qobiliyatları, qiziqishlari, ehtiyojlari, tajribasi, maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelgunigacha oiladagi madaniyatni hisobga olgan holda o'qitish maqsadlariga erishish yo'lidir. Bunday yondashuv har bir pedagog zimmasiga muayyan talablarni yuklaydi. Tarbiyachi bolalarga o'qitish maqsadlariga erishishda yordam ko'rsatishi lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T., 2014. yil,
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. –T., 2020 yil, 20-aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-5198-sون farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlanirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4312-sон Qarori
5. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi. Mualliflar:I.B.Grosheva, L.G.Evstafeva, D.T.Mahmudova, Sh.B. Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova.-Toshkent,2018.-59 S
6. "Ilm yo'li" variativ dastur 6 7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash.- Toshkent 2019
7. Abdullayeva N.Sh. Maktabgacha ta'limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish: Avtoref. ... ped. fan..fals dok. (PhD) – T., 2019.